


O'zbekiston seysmologik atlasi tayyorlandi

O'zbekiston hududida kuzatilgan zilzilalarni kartografik jihatdan tasvirlash, zilzila jarayonlarini hozirgi tendensiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlarini baholash shuningdek, mamlakatimizning seysmik xavfi yuqori bo'lgan mintaqalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zilzilalarga qarshi ko'rildigan chora-tadbirlarni rejalash maqsadida O'zbekiston Fanlar akademiyasi G.O.Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti olimlari tomonidan "O'zbekiston Seysmologik atlasi" loyihalandi va tuzildi.

"O'zbekiston Seysmologik atlasi" 7 bobdan iborat bo'lib, o'z ichiga 70 dan ziyod xaritalarni mujassamlashtirgan. Atlasda zilzila jarayonlariga oid xaritalardan tashqari geologik, tektonik va boshqa mavzulardagi xaritalar ham o'rinni olgan.



Ta'kidlash joizki, "O'zbekiston Seysmologik atlasi" Seysmologiya institutida turli yillarda faoliyat ko'rsatgan va hozirda o'z faoliyatlarini olib borayotgan olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijalari asosida tayyorlandi. Mazkur atlasdan nafaqat geologiya, seysmologiya yo'nalishi mutaxassislari, umuman Yer haqidagi fanlar bilan bog'liq yo'nalishlarda tahsil olayotgan magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar, professor o'qituvchilar va qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

"O'zbekiston Seysmologik atlasi" mustaqilligimizning 30 yillik yubileyiga bag'ishlanadi.